

KO'HNA VA NAVQIRON BUXORO

TONGYULDUZI

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

www.tongyulduzi.uz

2011-yil
30-may
N:22
(66823)

ISSN - 2010-6092

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqq boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

MAXSUS SON



1-iyun - Xalqaro
bolalarni himoya
qilish kuni



Bolajonlar, Sizing oydin yo'llaringizni ko'rib, Oyinging ham havasi keladi. Yurtning mayin shamollari dillaringizni chog'lashga intiladi, maysalarning tebranishida ham hikmat bir siz uchun. «Tong yulduzi» esa sizga qadrdon yo'ldosh sifatida madhingizni kuylashda davom etmoqda. Albatta, bu sizning katta minbaringiz.

Xabaringiz bor, siz uchun mehnat qilayotgan jamoamiz yurtimizning barcha viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahridagi tengdoshlaringiz hayotiga bag'ishlangan «Maxsus son»larimizni tayyorlab, sizlarga yetkazdilar. Nihoyat, Buxoro viloyatida yashab, ilm olayotgan tengdoshlaringiz hayoti, har sohada qo'lga kiritayotgan yutuqlari, ularning ustozlari haqida hikoya qiluvchi «maxsus son» ham qo'lingizda. Shunday bir yaxshi niyat qilgan edik, bu saodatga ham yetdik va bundan behad mamnunmiz. «Zar qadrini zargar biladi». Muxbir aka va opalaringiz chinakamiga mehnat qildilar: Feruzalar, Ma'mura, Manzura, Gulyuz,

OY HAM HAVAS QILADI

Nargiza opalaringiz, Zubayda, Zuhra chaqon qizlarimiz, jonkuyar Yusuf, shoir Axtamquli, rassom Feruz akalaringiz, dizaynchilar – Fazliddin, Olovuddinning sa'y-harakatlari mahsuli, murakkab va qiyin ishlarining mahsuli bu. Xalq ta'limi vazirligi mutasaddilari, viloyatlar Xalq ta'limi boshqarmalarida mehnat qilayotgan ustozlarimiz ko'magidan minnatdorigimizni alohida ta'kidlab o'tmoqchimiz.

Aytish mumkinki, o'n ikki kitob yuzaga keldi va ular tahririyatimiz xazinasidan o'rin oldi. Yillar o'tadi, ularni o'quvchilar soni ortib boradi,

chunki ular qay biringizning ilk she'r va hikoyangiz, maqola va rasingiz chop etildi. Bil'aks, bugungi kunda el nazariga tushgan juda ko'plab taniqli ijodkorlarning ilk mashqlari shu gazetada bosilgani ayni haqiqat va ular bu kunlarda ham o'sha zavqli damlarini

xushnudlik bilan eslab, gazetadan minnatdor ekanliklarini qayta-qayta izhor etadilar. Demoqchimizki, kelajakda sizga ham shunday baxt nasib etsin!

Buxoro – yurtimizning durdona viloyati, nomi dunyoga ma'lum va mashhur ko'hna zamin. Salobatli Ark, Arslon minorasi, Mir Arab madrasasi, Bahouddin Naqshband ziyoratgohi, Buxoro shahrining bugungi qiyofasi hammani maftun etmoqda. Kundan-kunga go'zallashib borayotgan shahar mustaqil yurtimizning faxri, iftixori hamdir. Siz ana shunday zaminda, ulug'vor maskanda yashab, ilm

olyapsiz, ma'nan barkamol avlod bo'lishga intilyapsiz. Prezident bobongiz aytganlaridek, ma'naviyatni yuksaltirsak, o'z murod-maqsadimizga yetishda kuchli madad topamiz.

Vatan siz uchun nima kerak bo'lsa, hammasini muhayyo etmoqda, bunday imkoniyatlar ota-bobolaringiz uchun mo'jiza tuyuladi, «Qani yoshligim qaytib kelsaydi...» deganlar ham bor. Albatta, bu borada ham o'zingizning xulosalaringiz bor. Xullas, buxorolik tengdoshlaringiz uchun tayyorlangan «maxsus son»imizni o'qib chiqqach, shaxsiy fikrlaringizni yozib yuborishni ham unutmang. Oldinda yoz, uch oylik ta'tilda ham gazetamiz nashr etib turiladi. Darvoqe, Buxoro viloyatidan olgan bir quchoq maqola, xabar, she'r va hikoyalarning barini gazetamiz sahifalariga sig'dira olmadik, shu bois, «Meniki chiqmabdi», deya xafa bo'lmang. Ularni uch oy yoz davomida navbatma-navbat chop etib boramiz.

Yaxshi dam oling, ilm olishda davom eting. Yoz taassurotlarini bizga yozib yuborishni ham unutmang.

TAHRIRIYAT

ISLOHOTLAR SAMARASI

YOKI

BUXORO VILOYATI XALQ TA'LIMI TIZIMIDA OLIB BORILAYOTGAN ISHLAR XUSUSIDA

Viloyatimizda 981 ta ta'lim muassasalari, jumladan, 534 ta umumta'lim maktablari, shulardan 4 tasi maxsus maktab-internatlari, 3 ta sanatori tipidagi maktab-internatlari, 352 ta maktabgacha va 36 ta maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, 19 ta musiqa va san'at maktablari, 38 ta bolalar va o'smirlar sport maktablari, 1 ta «Mehribonlik uyi» va 1 ta pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti faoliyat ko'rsatmoqda.

Zamon talablariga to'la javob berayotgan bunday ta'lim maskanlarida mehnat qilayotgan 26309 nafar fidoyi ustozlardan saboq olayotgan o'g'il-qizlarimiz ko'plab yutuqlarni qo'lga kiritib, viloyatimiz sharafini munosib himoya qilib kelishyapti.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining umumta'lim fanlari bo'yicha respublika olimpiadalarning IV bosqichida 54 nafarlik viloyat jamoasi muvaffaqiyatli ishtirok etib, 7 ta sovrinli Diplom bilan umumjamoa hisobida ikkinchi o'rinni egalladi.

Viloyatda «Ustoz-shogird» maktabi faoliyatini tashkil etish maqsadida 249 nafar ustoz o'qituvchilarga 747 nafar shogird o'qituvchilar birlashtirildi.

Viloyatda uslubiy xizmat ko'rsatishning kommunikatsion jarayonda amalga oshirilishi yo'lga qo'yilib, «Metodik-axborot servis xizmati» tarmoqli markazlari tashkil etildi.

Viloyat bo'yicha o'quvchilarning o'rtacha o'zlashtirish darajasi o'tgan yilga nisbatan 0,8-1,1 foizga yuqori bo'ldi.

Ta'lim muassasalarini «ZiyoNet» axborot tarmog'iga ulash bo'yicha umumta'lim maktablari «East Telecom» provayderi orqali 130 ta, «Perfectum Mobile» kompaniyasi tomonidan 261 ta, «UzMobile» provayderi

zallari qurildi, Qorovulbozor tumanidagi «Go'zal» suzish havzasi kapital ta'mirlandi va ular sport anjomlari bilan ta'minlandi.

Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi doirasida viloyatda o'tgan yillarda 7 ta umumta'lim maktabi yangidan qurildi, 81 ta maktab binolari mukammal rekonstruksiya qilindi, 140 ta maktablarning bino va inshootlari mukammal va 232 ta maktablarning bino va inshootlari joriy ta'mirlandi.

2005-2009-yillarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qaroriga muvofiq jami 363 ta maktabni zamonaviy kompyuter texnikasi bilan ta'minlash amalga oshirildi. Natijada bugungi kunda eng so'nggi rsumdagi kompyuterlar bilan ta'minlangan maktablar soni 443 tani tashkil etdi.

Shu yillar davomida o'quvchilar uchun jami 265 nomda zamonaviy darsliklar yaratildi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturi hozirdanoq o'z mevalarini bera boshladi. 2009-2010-o'quv yili yakunida o'tkazilgan monitoring natijasiga ko'ra bu ko'rsatkich 76,7 foizni tashkil etdi.

Ta'lim tizimida olib borilayotgan bugungi islohotlar ertaga o'z samarasini berishiga ishonamiz.



tomonidan 39 ta, jami 430 ta umumta'lim maktablari tarmoqqa ulandi.

«Bolalar sportini rivojlantirish» jamg'armasi viloyat filialining manzilli qurilish dasturi bo'yicha 3 ta musiqa va san'at maktablari, Kogon shahrida yangi II-tip, Buxoro shahri va Vobkent tumanlarida musiqa va san'at maktablari qurildi va rekonstruksiya qilindi. 5 ta umumta'lim maktablari uchun sport



HUNAR HAM GO'ZALLIKDIR

O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini to'g'ri va mazmunli tashkil etish, ularning iqtidorini oshirib borish maqsadida o'quvchilar ijodiyot markazida turli to'garaklar tashkil etilgan bo'lib, ular ko'plab ko'rik-tanlovlar, musobaqalar o'tkazilib boriladi.

Kogon tumani o'quvchilar ijodiyot markazi tasarrufida «Bioekosan», «Texnik ijodkorlik», «Sayyoh o'lkashunoslik» va «Badiiy nafasot» bo'limlari mavjud bo'lib, ular asosida 35 ta to'garak tashkil etilgan. To'garaklarda oliy va o'rta maxsus ma'lumotga ega mutaxassislar o'quvchilarga kasb-hunar sirlarini o'rgatib kelmoqdalar.

To'garak a'zolari viloyat va respublika miqyosida ommaviy tadbir va tanlovlarda faol qatnashib keladilar.

2010-yilda o'tkazilgan ekologiya yo'nalishidagi «Gullar va qushlar bayrami»da tumandagi 1-maktab o'quvchilari Gulnora Qodirova, Gulshoda Qalandarova, 3-maktab o'quvchisi Munavvara Hakimova tuman, viloyat va respublika bosqichida faol ishtirok etib, faxrli 1-o'rinni egalladilar. 1-maktab o'quvchisi Sardor Ravshanov «Tabiat: kecha, bugun, ertaga» ilmiy anjumanida qatnashib, respublika bosqichida 1-o'rinni egalladi.

Tumandagi 7-maktab o'quvchisi Nodir Turdiyev texnik ijodkorlik yo'nalishi bo'yicha 2010-yilda o'tkazilgan «Varraklar sayli» bayramining respublika bosqichida ishtirok etib, faxrli 1-o'rinni, 17-maktab o'quvchisi Farrux Mirzayev faxrli 2-o'rinni egalladilar.

Bu yil esa shu nomdagi tadbirda 17-maktab o'quvchisi Firdavs Xolov ishtirok etib, respublikada 3-o'rinni egalladi.

D.CHORIYEV,
ijodiyot markazi direktori



TA'LIMGA E'TIBOR - KELAJAKKA E'TIBOR

Kuni kecha respublikamizning barcha ta'lim maskanlarida so'nggi qo'ng'iroq sadolari baralla yangradi. Ustoz muallimlarimiz iborasi bilan aytganda, g'alvini suvdan ko'taradigan pallada ularning yumushlari yanada ko'paygan.

Buxoroga qilgan safarimiz o'quv yilining so'nggi kunlariga to'g'ri kelgani bois, viloyat tumanlari xalq ta'limi bo'limi mudirlari ham asosan o'quv yili yakunlari haqida so'z yuritdilar.

A.ELMURODOV,
Shofirkon tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri:

VILOYATDA UCHINCHI

- O'quv yili yakunida umumta'lim maktablarining 3148 nafar bitiruvchilari orasida so'rovnoma o'tkazdik. Unga ko'ra 2112 nafar o'quvchi tuman kollejlarda, 964 nafari viloyatimizdagi akademik litsey va kollejlarda, 68 nafari viloyatdan tashqaridagi o'quv maskanlarida, 4 nafari poytaxtda o'qish istagini bildirishgan. Bundan ko'rinib turibdiki, o'quvchilarimizning asosiy qismi tumandagi o'quv maskanlarini tanlashgan.

Tumanimizda 57 ta umumta'lim maktablari, 30 ta maktabgacha ta'lim muassasalari, 4 ta maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, 1 ta musiqa maktabi, 2 ta bolalar va o'smirlar sport maktabi faoliyat olib bormoqda.

Ulardagi 24923 nafar o'quvchilarga 3142 nafar ustozlar ta'lim-tarbiya bermoqdalar. «Ustoz-shogird» maktabi, «Kasbiy mahoratni oshirish ustaxonasi» tashkil etilgan bo'lib, u yerda ustozlar hamkorlikda ish olib boradilar, tajriba almashadilar, yosh o'qituvchilarga ustozlik qiladilar. O'quvchilarimiz bilimi sinovdan o'tkazilganda, umumjamoa hisobida viloyatda faxrli uchinchi o'rinni egallashdi.

Umumta'lim maktablarining 37 tasida zamonaviy kompyuter sinflari mavjud. 4-, 6-, 19-, 20-, 28-, 41-maktablar klaster sinf komplekt maktablaridir. «ZiyoNET» tarmog'idan foydalanish bo'yicha 6 ta maktab IST TELEKOM, 29 ta maktab PERFEKTUM tarmog'i orqali axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatiga ega. 35 ta maktablar bilan elektron ma'lumot almashinish yo'lga qo'yilgan.

O'quv yili yakunida 14 ta maktabga Koreya granti bo'yicha kompyuter texnikalari topshirildi.

105 dona tennis stoli va sport anjomlari maktablarga yetkazib berildi. 3148 nafar bola sport to'garaklariga jalb qilingan. 72 nafar qizaloqlar Nafis gimnastika saroyida badiiy gimnastika mashg'ulotlarida ishtirok etmoqdalar.

«Vatanimiz mustaqilligining 20 yilligiga mening tuhfam» shiori ostida kulgan 156755 dona mevali va 403085 dona manzarali daraxtlarimiz yashnab turibdi. Ta'lim maskanlarimizda 23 gektar ekin yerlarining 8 gektariga kartoshka, 10 gektariga mevali bog' va tokzor, 1 gektariga piyoz, 3,34 gektariga boshqa sabzavot ekinlari ekildi. Shuningdek, 28 bosh qoramol, 532 dona parranda va 53 dona qo'y-echkilar boqilmoqda.

I.NOROV,

G'ijduvon tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri vazifasini bajaruvchi:

IQTIDORLILAR KLUBI

- Tumanimiz umumta'lim maktablarida, 42632 nafar o'quvchiga 4437 nafar o'qituvchilar saboq bermoqdalar. Ustozlarimiz tajribali, bilimli. Shu sababdan, o'quvchilarimiz ham ilmga chanqoq, kitobxon, gazetxon. «Tong yulduzi» gazetasi qiziqishlari katta. Bu esa, albatta, biz ustozlarni quvontiradi.

Ta'lim muassasalaridagi uslubiy birlashma, Kengash faoliyati tubdan o'zgartirildi. Buning natijasida tumanda 25 nafar ijodkor o'qituvchilardan iborat «Ijodkor o'qituvchilar uyushmasi» tashkil etildi. Iqtidorli, izlanuvchan o'quvchilar uchun esa «Intellektual klub»lar o'z faoliyatini boshlab yubordi. «Bilimlar sinovi»da ham o'quvchilarimiz bo'sh

kelmadilar. 63-maktabning 8-sinf o'quvchisi N. Umarova ona tili va adabiyot fanidan, 62-maktabning 6-sinf o'quvchisi Oqil Majidov hamda 65-maktabning 8-sinf o'quvchisi Jo'rabek Rashidov biologiya fanidan viloyat bo'yicha hamdadan bilimdon ekanliklarini isbotlashdi.

«Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida 18-maktabning huquq fani o'qituvchisi Amin Madatov hamda 62-maktabning fransuz tili fani o'qituvchisi Shodiyor Nishonboyev faxrli birinchi o'rinni qo'lga kiritishdi.

P.XOLOV,

Buxoro tumani xalq ta'limi bo'limi mudiri:

ZAKOVATLI YOSHLAR YURT TAYANCHI

- Tuman xalq ta'limi bo'limi tasarrufida 52 ta maktab, 1 ta viloyat tasarrufidagi maktab-internet, 23 ta maktabgacha ta'lim muassasalari hamda 5 ta maktabdan tashqari ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatmoqda.

Ularda 20300 nafar o'g'il-qiz ta'lim-tarbiya olmoqda. 3607 nafar bola turli to'garaklarga jalb qilingan. Umumta'lim maktablarida o'quvchilar bilim samaradorligini oshirish bo'yicha fan oyliklari, turli tanlovlar o'tkazib kelinayapti.

Tumanda Bolalar sportini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar natijasida 6 yoshdan 17 yoshgacha bo'lgan 8689 nafar o'g'il-qiz sportga jalb etildi.

O'quvchilarni ommaviy madaniyat tahdididan himoya qilish maqsadida ko'plab madaniy va ma'rifiy tadbirlar uyushtirilyapti. «Ustoz-shogird» maktabiga 19 nafar ustoz-o'qituvchilar va ularga birkiritilgan 57 nafar shogird o'qituvchilar jalb qilingan.

Shuningdek, barcha ta'lim muassasalarida fan oyliklari, ochiq darslar, tanlov va tadbirlar o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan.

Yaqinda tumandagi 23-maktabda xalq ta'limi vazirligi va «Osiyo taraqqiyot banki» bilan hamkorlikda tashkil etilgan klaster sinflari va ARMLar faoliyatini tashkil etish bo'yicha uchrashuv tashkil etilib, unda «Osiyo taraqqiyot banki» prezidenti janob Xarixiko Kuroda va xalq ta'limi vazirligi, viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi yetakchi mutaxassislari maktabga tashrif buyurib, darslarda ishtirok etdilar.

Q.BOLTAYEV,

Olot tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri:

ISTIQLOL SHUNDAY NE'MAT

- Biz tarixi necha ming yillarni qamrab olgan buyuk xalqimiz. Ulug' ajdodlarimiz asrlar davomida siyosat, ilm-fan, madaniyat sohasida dunyoni hayratga soladigan ulkan ishlarni amalga oshirib kelganlar.

Vatanimiz istiqloli ana shunday an'ana va qadriyatlarimizni tiklash, ularni zamon talablari asosida boyitish va rivojlantirish, o'zligimizni anglash, dunyo hamjamiyatidan munosib o'rin egallash imkonini bergani uchun ham behiyoza aziz va qadrlidir.

Zamonaviy taraqqiyot bosqichi talablariga to'la javob beruvchi ta'lim tizimini takomillashtirish maqsadida yurtimizda yetuk va barkamol avlodni tarbiyalashga katta

e'tibor qaratilgan. Shu maqsadda tumanimiz maktablarida turli bilimlar sinovlari, fan olimpiadalari o'tkazilib, iqtidorli o'quvchilar aniqlanib, ularning mukammal bilim olishlari uchun yanada keng imkoniyatlar yaratilmoqda.

Matyoqub HOJIYEV,

Peshku tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri:

YANGILANISHLAR SAMARADORLIK OMILI

- Tumanimizdagi umumta'lim maktablarida ta'lim jarayoniga uzviylashtirilgan DTS o'quv dasturlari va o'quvchilar bilimlarini baholashning takomillashtirilgan reyting tizimi joriy etilishi ta'lim sifa'ini oshirishga qulay imkoniyatlar yaratadi.

O'qituvchilarning yangi o'quv dasturlar asosida o'quvchilarga ta'lim berish sifati o'tgan yilga nisbatan 7,2 foizga oshdi.

Shuningdek, ta'lim maskanlarida fizika, kimyo, biologiya fani xonalarining o'quv-laboratoriya asbob-uskunalari, texnika jihozlari, kompyuterlar bilan ta'minlanishiga erishish sur'ati sezilarli darajada o'sdi.

Tumanimizda bolalar sporti rivojiga ham katta ahamiyat berilyapti. Sport bilan muntazam shug'ullanuvchilar 6153 nafarni, shundan qizlar 2279 nafarni tashkil qiladi. 424 ta sport to'garaklarida sportning 11 turi bo'yicha mashg'ulotlar olib borilyapti. Tuman hududida bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan «Qal'ai-Mirishkor» qishloq bolalar sport majmuasi, badiiy gimnastika markazi, kurash markazi, ko'plab sport zallari qurilib, foydalanishga topshirildi. Barcha maktablarimiz sport anjomlari bilan ta'minlandi. Bu ishlarning samarasi o'laroq yosh sportchilarimiz ham ulkan natijalarni qo'lga kiritib, tumanimiz sharafini munosib himoya qilib kelishyapti.

Mart oyida badiiy gimnastika bo'yicha o'tkazilgan respublika miqyosidagi musobaqada Shahnoza Xayrullayeva, Dilshoda Panoyeva, Dilnavoz Nabiyeva, Laylo Hamroyeva, Charos Halloqova kabi o'quvchilar faol ishtirok etib, faxrli 2-o'rinni egallashga muvaffaq bo'ldilar.

O'tgan yili Navoiy viloyatida bo'lib o'tgan milliy kurash bo'yicha respublika turnirida 29-BO'SM tarbiyalanuvchilar Ahmad Jumayev 1-o'rinni, Azamat Tohirov faxrli 3-o'rinni egallab qaytdilar.

Murabbiylarimiz ham bo'sh kelishayotgani yo'q. Yaqinda bo'lib o'tgan respublika birinchi ligida 3-BO'SM murabbiysi Iqbol Panoyeva muvaffaqiyatli qatnashib, faxrli 2-o'rinni egalladi.

A.SHIRINOV,

Vobkent tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri:

BITIRUVCHILARGA OMAD YOR BO'LSIN!

- Vobkent tumani xalq ta'limi tizimida 41 ta umumta'lim maktablari, 24 ta maktabgacha, 1 ta maktabdan tashqari ta'lim muassasalari, 4 ta sport maktablari, 1 ta musiqa va san'at maktabi faoliyat ko'rsatadi.

19200 nafar o'quvchi tahsil olayotgan umumta'lim maktablarida ta'lim o'zbek va rus tillarida olib boriladi. Tumandagi barcha bilim maskanlari Internet tarmog'iga ulangan. 2004-2009-yillar Davlat dasturi asosida tumandagi 37 ta maktab joriy, kapital va kapital rekonstruksiya qilindi.

Fan uslubchilari tomonidan 19 ta fandan seminar o'tkazildi. 9 nafar o'qituvchining pedagogik faoliyati tumanda, 2 nafar o'qituvchining ishi viloyatda, bir o'qituvchimizning ishi respublikada ommalashtirildi.

2010-2011-o'quv yilida 2285 nafar o'quvchi 9-sinflarni tamomlab, mustaqil hayotga qadam qo'yidilar. Ularga omad yor bo'lishiga tilakdoshmiz.

TINCHLIKSEVAR YURT FARZANDLARIMIZ

«Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Shofirkon tumani bo'limi Kengashi homiyligidagi «Kamalak» bolalar tashkiloti Sardorlar Kengashi a'zolari ko'plab ibratli loyihalarni amalga oshirib kelmoqda.

Bugungi kunda tuman umumta'lim maktablarida 412 nafar sinf sardorlari, 495 nafar maktab sardorlari va 9 nafar tuman sardorlari faoliyat yuritadi. Tinib-tinchimas yetakchilar bir-biridan quvnoq tadbirlar, o'quv

seminarlarga bosh bo'lishmoqda. Ulardan ibrat olib, «Kamalak»chilar safi kundan-kunga ortib boryapti.

Mazmunli loyihalar bolajonlarni yanada ko'proq izlanishga, o'rganishga undamoqda. Jumladan, «Biz tinchliksevar yurt farzandlarimiz» loyihasi o'quvchilarni tinchlik, osoyishtalik, yoshlarga ko'rsatlayotgan g'amxo'rliklarning qadriga yetishga, Vatanni asrab-avaylashga o'rgatadi.

SARDORLAR OLIMPIADASI

Sardorlar olimpiadasi haqida eshitgan Vobkent tuman sardorlari harakatga tushib qolishdi. Chunki bu olimpiadada sardorlarning eng saralari ishtirok etishlari lozim edi-da. Chindan ham bu bellashuvda g'olibni aniqlash oson bo'lmadi.

Vobkent tumanidagi 21-umumta'lim maktabi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati homiyligidagi «Kamalak» bolalar tashkiloti sardori 8-«A» sinf o'quvchisi Gulruh Nasullayeva «Sardorlar olimpiadasi – 2011» ko'rik-tanlovida birinchi o'rin sohibasi bo'ldi. Bu ishonch Gulruhoyni yanada katta mas'uliyat yukladi.

«KAMALAK» BOG'I



«Mustaqilligimizning 20 yilligiga 20 tup nihol» shiori ostida Vobkentdagi 21-maktab o'quvchilari «Ekosan» yo'nalishi a'zolari bilan birgalikda «Kamalak» bog'ini barpo etishdi.

Ulardan o'rnak olgan vobkentlik sardorlar ham bog' yaratish taraddudiga tushib qolishdi. Shuni aytishadi-da, haqiqiy sardor ezgu ishlar yetakchisi, deb.

USTOZLARINING USTOZI

63 yoshli Oynazar Boboyev nafaqat bolajonlarning, balki ustozlarning ham chin ma'nodagi ustozidir.



Qorako'l tumanidagi 6-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi Oynazar otaning ish tajribasi tuman, viloyat, hatto respublikada ommalashtirilgan. Ustozning o'nlab shogirdlari bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'lim-tarbiya bermoqdalar.

Mehnatsevar murabbiy «Ustoz-shogird» maktabida o'z bilim va malakasini yosh pedagoglarga o'rgatib kelmoqda. Tumandagi ixtisoslashtirilgan 52-maktab o'quvchilari ustozning «Ixtisoslashtirilgan maktablarning boshlang'ich sinflari uchun matematika fani dasturi» asosida o'qitilmoqda. «Matematikadan qo'shimcha materiallar to'plami» esa boshlang'ich sinf o'quvchilarini ixtisoslashtirilgan maktablarga o'qishga qabul qilishda asosiy qo'llanma bo'lib kelmoqda.

Ustoz mehnati munosib baholandi. Yurtboshimiz tomonidan «El-yurt hurmati» ordeni bilan taqdirlandi. Bu esa Oynazar Boboyevning kuchiga kuch, mehnatiga zavq bag'ishladi.

G.HAYITOV,
O'zbekiston Respublikasi
Xalq ta'limi a'lochisi

JONDORLIK BILIMDONLAR

Jondor tumanida 48 ta umumta'lim maktabi, 2 ta iqtidorli bolalar maktab-internati, 1 ta maxsus maktab-internet faoliyat ko'rsatib keladi. Ularda 24303 nafar o'g'il-qiz tahsil oladi.



«Viloyat hokimi stipendiyasi» sovrinini qo'lga kiritish uchun bilimdonlar bir-birlaridan o'zishga harakat qilishmoqda. 27-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi Boburbek Samandarov, 10-maktabning 7-sinf o'quvchisi Behruz Ergashev bu sovrinni qo'lga kiritishdi.

Jondor tuman O'quvchilar ijodiyot markazi qoshidagi qo'shiqchilik to'garagi a'zolari – 36-maktab o'quvchilari «O'zingdan aylanay, o'lkam» estrada qo'shiqchiligi tanlovida tumanda birinchi, viloyatda faxrli ikkinchi o'rinlarni qo'lga kiritishdi.

38-maktabning 9-«A» sinf bitiruvchisi Nozima Xolmurodova «Bilimlar sinovi»da ishtirok etib, viloyatda g'olib bo'ldi va respublika bosqichiga yo'llanma oldi. Ustozlari ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Gulandom Azimova shogirdining muvaffaqiyatlaridan mamnun.

BEHZODNING «EKSKOVATOR»I

Behzod Ismatov Kogon shahridagi O'quvchilar ijodiyot markazida bo'lib o'tgan «Ijodkor ixtirochi» ko'rik-tanlovida ishtirok etdi-yu, «ixtirochi» degan nom oldi. U shahardagi 4-umumta'lim maktabining 8-«B» sinfini muvaffaqiyatli yakunladi.

Behzodning harakatlanuvchi «Ekskovator» modeli ko'pchilikning e'tiborini tortdi. Bolalar mashinasiga o'rnatilgan ekskavator naychalari shpris orqali harakatga keltirildi. Shpris havo bilan to'ldirilgach, ekskavatorning kovlagich qismi yuqoriga ko'tariladi, havo chiqarilganda, pastga harakatlanadi. Ingichka naychalar ichiga



suv solingan bo'lib, shpris bilan harakatlantirilganda, tuproq olib to'kish va burilish hosil qilish xususiyatiga ega bo'ldi.

Behzoddan kelgusida umidimiz katta. Yosh ixtirochiga bu yo'lda omdalar taylamiz.

M.IKKROMOVA,
Kogon shahar O'quvchilar ijodiyot markazining ma'naviy va ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari



Ma'mura

Bir emas, ikki o'quvchi – Ma'mura Jumaboyeva, O'lmas Jumamurodovning «Yangi avlod – 2010» Respublika bolalar ijodiyoti festivali laureati bo'lishi Qorako'l tumanidagi 20-bolalar musiqa va san'at maktabi o'quvchilari-yu o'qituvchilarini birdek quvontirgan edi. Bu xushxabar yana ko'plab yutuqlarni boshlab keldi.

MUSIQA AKTABIDA

Viloyat miqyosida o'tkazilgan «Bolalik bahori», «Maktabimiz hofizi» kabi ko'rik-tanlovlarda mazkur maktab o'quvchilaridan Og'abek Akromov, Ma'mura Jumaboyeva 1-o'ringa munosib topildilar. Kuni kecha esa viloyatda o'tkazilgan Muhitdin Qoriyoqubov nomidagi Respublika tanlovida qashqar rubobi ijrosi bo'yicha Shahzod Arslonov, an'anaviy xonandalik yo'nalishi bo'yicha Og'abek Akromov, Ma'mura Jumaboyeva qatnashib, respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritishdi.

Mazkur maktabda bu kabi iqtidorli o'quvchilar talaygina. Ayni paytda maktabning sobiq o'quvchilaridan o'ndan ziyodi Toshkent Davlat Konservatoriyasida tahsil olmoqda.

Fortepiano, qashqar rubobi, estrada cholg'uchiligi, an'anaviy ijrochilik, xoreografiya bo'limlarida jami 106 nafar o'quvchilar musiqa va san'at sirlarini qunt bilan o'rganishmoqda. Ularga To'xtamurod Atabullayev, Komila Azizova, Ergash Gadoyev, Ravshan Ochilov, Nilufar Yunusova kabi tajribali ustozlar saboq beradilar.

Albatta, bu o'quvchilarimizning bari kelgusida san'atkor bo'lmasliklari mumkin, lekin san'atni sevuvchi, uning qadriga yetuvchi inson bo'lishlariga ishonaman.

M.NOROV,
20- bolalar musiqa va san'at maktabi direktori



Bugungi kunda yoshlarimiz haqida gap ketganda, ularga hech ikkilanmay, bilimli, iqtidorli, zukko, intiluvchan... kabi ta'riflar beramiz. Rosti ham shu-da! Buxorolik tengdoshlaringiz orasida ham ana shunday fazilatlariga ega o'g'il-qizlar ko'plab topiladi.



10-sonli musiqa maktabining yana bir o'quvchisi O'ktam Yo'ldoshev ham qo'lga kiritgan yutuqlari bilan faxrlansa arziydi. O'tgan 2010-yilimiz O'ktam uchun omadli keldi: «Kelajak ovozi» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida an'anaviy ijro doira mutaxassisligi bo'yicha 1-o'rinni, «Yosh maqomchilar» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida 2-o'rinni qo'lga kiritdi. Mazkur yilimiz ham uning uchun muvaffaqiyatli boshlandi. Muhitdin Qoriyoqubov nomidagi respublika ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida doira mutaxassisligi bo'yicha 1-o'rinni qo'lga kiritgan O'ktamjon ayni damda respublika bosqichida ishtirok etish uchun qizg'in hozirlik ko'ryapti. G'ijduvondagi 1-umumta'lim maktabini a'lo baholarga tamomlab, Toshkent Davlat konservatoriyasi qoshidagi akademik litseyda tahsil olish niyatida.

E'zozaxon Rajabova G'ijduvon shahridagi 5-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi. Maktabda a'lochiligi, tirishqoqligi, namunali xulqi, o'qishga mas'uliyat bilan yondashishi bois tengdoshlari orasida hurmat qozongan.



TANISHING: A'LOCHI O'QUVCHILAR!

Bolaligidanoq ijod bilan shug'ullanib kelayotgan E'zoza «O'zbekiston – Vatanim manim», «Yangi avlod» ko'rik-tanlovlarinin faol ishtirokchisi. 2009-yili viloyat hokimi stipendiyasi sovrindori bo'ldi. Darsdan bo'sh vaqtlarida «Mohir qo'llar» to'garagiga qatnab, zardo'zlik sirlarini o'rganib kelyapti. O'tgan yili «G'uncha ifori» nomli ilk she'riy to'plami bosmadan chiqdi.



Nurmurod Avezov G'ijduvon tumanidagi 57-umumta'lim maktabining, shuningdek, tumanidagi 10-sonli musiqa maktabining faxri sanaladi. Maktabda o'tadigan barcha tadbirlarda, ko'rik-tanlovlarda faol qatnashib, tengdoshlariga ibrat bo'lib kelmoqda.

Shu yilning mart oyida o'tkazilgan Muhitdin Qoriyoqubov nomidagi ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida an'anaviy cholg'u yo'nalishi qashqar rubobi mutaxassisligi bo'yicha 1-o'rinni egallab, tanlovining respublika bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. Nurmurodjon kelgusida Buxoro san'at kollejiga o'qishga kirmoqchi.



Saodat To'rayeva tumanda yosh, umidli shoira sifatida ancha tanilib qolgan. Chunki uning Vatanga, ota-onaga, tabiatga muhabbat ruhidagi she'riy mashqlari «Vobkent hayoti» gazetasida tez-tez chop etilib turadi. Vobkent tumanidagi 31-maktabning a'lochi o'quvchilaridan biri bo'lgan Saodat darsdan bo'sh vaqtlarida badiiy kitoblar o'qiydi, «Yosh notiqlar» to'garagi mashg'ulotlariga muntazam qatnab, o'qigan kitoblari, yod olgan she'rlari yuzasidan ustozlari, tengdoshlari bilan fikr almashadi.

Saodatning yozgi ta'til kunlariga mazmun naqd: badiiy kitob o'qishni hozirdanoq boshlab yubordi.




Vobkent tumanidagi 26-umumta'lim maktabi bitiruvchisi Dilnavoz Bozorova ham maktabining faxri sanaladi. Uning qiziqmaydigan fani yo'q hisobi. Sinf sardori. Fan olimpiadalarida faol qatnashib, maktabi sharafigini munosib himoya qilib kelyapti.

Maktabni a'lo baholarga tamomlab, mustaqil hayot bo'sag'asida turgan Dilnavoz ustozlariga havas qilib, o'qituvchilik kasbini egallash niyatida.

RASMLAR KO'RGAZMASI

Jonibek KAMOLOV Buxoro shahridagi 34-umumta'lim maktabining 4-sinfida, Qosim Mirzo XUSENOV esa 1-maktabning 1-sinfida tahsil olishadi. Ikkisining ham tasviriy san'atga mehri bo'lakcha.



G'ijduvon tumanidagi 23-maktabning izlanuvchan, intiluvchan o'quvchilaridan biri Madina IDIYEVA ona Vatanga, tabiatga muhabbat, onaga ehtirom, yovuzlikka nafrat ruhi ufurib turgan rasmlarini «Rangin dunyo» nomli to'plamchasiga jamlabdi. Yosh musavvir tengdoshlaringiz chizgan rasmlardan saralab, «Rasmlar ko'rgazmasi» tashkil qildik.



Jajji Qosim Mirzo «Soliq bilimlari bolalarga» ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida qatnashib, 2-darajali Diplom bilan taqdirlangan bo'lsa, Jonibek mazkur tanlovining respublika bosqichida faxrli 3-o'rinni egallab, ona shahri, qolaversa, maktabi sharafigini munosib himoya qildi.






TINCHLIK

Urush ko'rmasin bolam,
Tinch bo'lsin, deydi, olam,
Yurtin sevgan har odam,
Tinchlikni istar mudom.
Har qarich tuproq aziz,
Tinchlik so'zidir laziz,
Shod yashasin o'g'il-qiz,
Ezgulikka to'lib iz.

Gulasal MAHMUDOVA,
Vobkent tumanidagi 3-umumta'lim
maktabi o'quvchisi



VATAN NIMA?

Vatan o'zi ne ekan,
Xayolga toldim bir zum.
Unda gulmi yo tikan,
Bariga qilay ta'zim.

Siqim tuproq bir Vatan,
Ayro tushmayman bir zum.
Bog'lari chaman-chaman,
Bariga qilay ta'zim.

Mehribon ota-ona,
Parvona bo'lay o'zim.
Bosh qo'yganim ostona,
Unga ham qilay ta'zim.

Kumush qishli dalalar,
Qor-la qiladi bazm.
O'ynar tengdosh bolalar,
Ularga qilay ta'zim.

Kelsa bahor chog'lari,
Tog'lar yanada azim.
Kelinchakdek bog'lari,
Bariga qilay ta'zim.

**Sevarabonu
IBODULLAYEVA,**
G'ijduvon tumanidagi
43-umumta'lim maktabi
o'quvchisi



VOBKENTIM

Osmono'par minorasi bor kentim,
Buyuk zotlar duolari yor kentim.
Murg'ak qalbga orom berar jon kentim,
Ona yurtim, go'zal go'sham Vobkentim!
Buxoro bag'ruda eng go'zal makon,
Tarixing asrlar qa'ruda pinhon.
Sahbo Vobkandiyya sen bergan ilhom,
Ona yurtim, go'zal go'sham Vobkentim!

Shodiya TO'LAYEVA,
Vobkent tumanidagi 31-maktabning
7-«B» sinf o'quvchisi



BOQIY BUXORO

Aylanib turadi shar
Buxoro osmonida.
Beg'ubor bu oppoq shar,
Pokligimiz ramzi-da.
Yurtimning xaritasi,
Tasvirlangandir unda.
Olislardan boqsangiz,
Ko'zga tashlanar bunda.
Bu obida oldida,
Bir zum o'yga toldim men.
Mahobatiga boqib,
Hayratdan lol qoldim men.

Shahzoda JO'RAYEVA,
Buxoro shahridagi
17-umumta'lim maktabining
2-«A» sinf o'quvchisi

ONAJONLARGA

Toshib oqsin mavjli daryolar,
Qad rostlasin ko'rkam binolar,
O'tsa hamki necha dunyolar,
Onajonlar ko'z yosh to'kmasin.
Duosini olsin har farzand,
Yuqtirmasin sha'niga hech gard,
Dillariga dil bo'lsin payvand,
Onajonlar ko'z yosh to'kmasin!

Zilola KARIMOVA,
Buxoro shahridagi 22-maktabning
9-«A» sinf o'quvchisi



Ayiqpolvonnikiga
Arslon mehmonga
kelibdi. Ayiq uni yong'oq bilan siylamoqchi bo'lib, to'ng'ich o'g'liga daraxtga chiqib, yong'oq terishni buyuribdi. O'g'il ko'nmagach, Ayiq bu ishni o'rtancha o'g'lidan iltimos qilibdi. U ham otasining iltimosini rad etgach, Arslonning jahli chiqibdi:

—Bolalarim odobli degan eding, birortasi ham gapingga kirmay, seni xafa qilishyapti-ku, — debdi.

Shunda Ayiqpolvon Arslonga:

— Daraxt tagidan sal nariroq borib turaylik, — deya iltimos qilibdi.

Ular nari ketishgach, ayiqchalar shoshib-pishib daraxtga tirmashib chiqishibdi-da, yong'oq terib, mehmonning oldiga qo'yishibdi. Bu holdan ajablangan Arslonga Ayiq:

— Buning sababini ularning o'zlaridan so'ra, — debdi.

Arslon so'ragan ekan, to'ng'ich o'g'il:

— Otamiz daraxt tagida edilar, padari buzruk-vorimiz soyasida o'tirgan daraxt tepasiga chiqsak, uyat bo'lmaydimi, axir? — deya javob beribdi.

da, — deya xushmuomalalik bilan javob qaytaribdi Ayiqpolvon.

Aziza SULTONOVA,
Buxoro shahridagi 33-maktabning
9-«A» sinf o'quvchisi


MEHMON KUTISH OSONMI?

(Hikoya)

Shunda Arslon Ayiqqa:

— Shuni bilar ekansan, daraxt tagidan chetraqda turishimizni oldinroq aytasang bo'lmasmidi? — debdi.

— Yonimda sen — mehmonimiz o'tirgan eding. Mehmonni bezovta qilish, ko'ngliga ozor berish odobdan emas. Mening shoshqaloqligim «Mehmon otangday ulug'», degan hikmatga zid bo'lardi-





KOGONLIK SPORTCHILAR



Kogon shaharchasi Buxoroning mashhur maskanlaridan biridir. Bu yerda 6-OZBO'SM (Olimpiya zakiralari bolalar va o'smirlar sport maktabi) joylashgan. Maktab o'zining yorqin yulduzlari-yu, tinib-tinchimas murabbiylari bilan dunyoga tanilgan. Mazkur dargohda qator xalqaro turnirlar g'olibi va sovrindorlari, Osiyo o'yinlari ishtirokchilari, O'zbekiston Olimpiya terma jamoasi a'zolari va O'zbekiston chempionlari istagancha topiladi. Shuhrat Miraliyev yoshlar o'rtasida mamlakat chempioni bo'lib, maskanning nufuzini yanada oshirgan bo'lsa, boks bo'limi shug'ullanuvchilari D. Jo'rayev, I. Soatov Boku shahrida bo'lib o'tgan jahon chempionatida munosib o'rinni egalladilar.

«Umid nihollari» respublika bosqichida ham basketbol bo'limi sportchilari g'oliblar safidan joy oldilar. Baxtiyor va Baxshillo To'rayevlar maktabning faxri bo'lib, oliy liga bahslarida munosib ishtirok etib kelmoqdalar.

Kogonlik o'quvchilarning ko'pchiligi sharq yakkakurashi turida shug'ullanishadi. 4-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Oqila Kamolova karate bo'yicha yoshlar va o'smirlar o'rtasida bo'lib o'tgan respublika musobaqasining bronza medali sohibasidir. 17-maktab o'quvchisi Nigina O'rinova esa Malayziya va Turkiyada o'tkazilgan Osiyo chempionatining bronza medalini qo'lga kiritgan. 15-maktabning «Orzu» sport jamoasi ham yutuqlari salmog'i, salohiyati bilan tumanda yagona.



MEDALLARI KO'P BO'LSIN...

Murodali Aminov Buxoro viloyatidagi Bolalar va o'smirlar sport maktabida tahsil oladi. 3-sinfdan boshlab 21-Kumushkent sport maktabining kurash bo'limida shug'ullanishni boshlagan Murodali dastlab Vobkent tumanida bir necha bor medallar bilan siylandi.

«Umid nihollari» sport musobaqasining viloyat bosqichida ikki marta 1-o'rinni band etib, poytaxtga yo'llanma oldi. «Mahallamiz polvonlari» respublika turniri ham uni 3-o'rin bilan munosib taqdirladi. Murodalining medallari hozircha ko'p emas, ammo harakatlaridan ko'ksini medallar shodasi to'ldirib yuborishiga umid qilsak bo'ladi.

QORAKO'LLIK G'OLIBLAR

Viloyatning Qorako'l tumanidagi 5-ixtisoslashtirilgan sport maktab-internati o'quvchilarining respublika va xalqaro musobaqalarda qo'lga kiritgan yutuqlari ham diqqatga sazovordir. Hojiakbar Sultonov, Behzod Tursunov, Murod Mardonov va Farrux Tursunovning kurash bo'yicha bir qator turnirlar g'olibi ekanliklari ham maktabning yaxshi sportchilarga egaligini ko'rsatib turibdi. Mazkur maskanni bir so'z bilan mohir kurashchilar va dzyudochilar dargohi desak, xato qilmaymiz. Iste'dodli sportchilarni tarbiyalayotgan qorako'llik ustozlarning shogirdlari, umid qilamizki, viloyat, qolaversa, yurtimiz ishonchini to'la oqlayveradilar.

Buxoroning asrlarga tatigulik ovozasini bor. Farix bilan tillashgan binolari ham satrlarda qolgan rivoyatlar-u afsonalari ham uning tengsiz makon ekanligidan guvohlik beradi.

Yaqinda afsonaviy Buxoroga sayohat qilganimizda, asrlar sadosining izlariga guvoh bo'ldik.

Ayniqsa, farzandi yutuqlari bilan ko'nglini, borlig'ini sevinch qoplagan har bir ota-onaning faxrila o'sayotgan ko'ngillariga yo'l topib, mo'jizalar kutib yashayotgan o'g'il-qizlarning dil so'zlariga quloq tutib, qalbimiz cheksiz mehr-muhabbatga to'ldi.

Yurtimizning har go'shasida ortasidan umidvor insonlar yashayotganligini chuqur angladik.

SHAHRIYOR AKANING SHOGIRDLARI

Shahriyor aka Hasanov Buxoro yoshlar terma jamoasida bosh murabbiy. Shuningdek, Olot tumani 20-son BO'SM murabbiyi. Shahriyor akaning shogirdlari O'zbekiston terma jamoasi safida jahon arenalariga chiqib, yurt bayrog'ini munosib hilpiratib kelmoqdalar. 2011-yilda ham ustozning mehnatlari munosib taqdirlanmoqda. Poytaxtda yoshlar o'rtasida o'tkazilgan muay-tay sport musobaqalarida buxorolik yoshlar faxrli birinchilikka asosiy da'vogar bo'ldilar.

Otabek Bekmurodov, Javlon Ramazonov, Sanjar Pretov muay-tay bo'yicha O'zbekiston chempionlaridir.

Darvoqe, Shahriyor akangiz ham barcha murabbiylar kabi shogirdlariga o'ta talabchan. Ammo itilish, o'rganish bobida o'zi ham Qurbonmurod aka Qurbonovning shogirdi hisoblanadi.

TALISOBUNLIK MURABBIY

Ahad aka Adizov viloyatning Peshko' tumani Talisobun qishlog'ida tug'ilgan. Maktab partasidanoq sportga mehr qo'yib, murabbiyi Axtam aka Sharopov boshchiligida kurash sirtlarini qunt bilan o'rgandi. Endilikda o'zi ustoz - sport ustasi. «Varaxsho» 3-sonli BO'SM murabbiyi.

UCH CHEMPION MASKANI



Firdavs, Fayzullo va Zuhridin Vobkent tumanining Latifisobungar qishlog'ida yashaydilar. Ular faqat sportchi emas, balki maktabning a'lochi o'quvchilari hamdir. Sportning taekvando va yengil atletika turi bilan muntazam shug'ullanib kelayotgan uch tengdoshingiz maktabda tashkil etilgan fan va sport to'garagining muntazam ishtirokchilari. Hozirdanoq uch qahramonimizning havas qilgudek yutuqlari bor...





HAR ISHDA ILG'OR...

Azizbek Hamroyev
Olot tumanidagi 3-umumta'lim maktabining 6-sinfida tahsil oladi. Uni maktabdoshlari a'lochi o'quvchi deb atashadi. Azizbek matematika faniga juda qiziqqani sababli, viloyat miqyosida o'tkazilgan fan olimpiadasida 1-o'rinni egalladi va respublika miqyosida o'tkaziladigan olimpiadaga yo'llanma oldi.

Azizbek kabi a'lochi o'quvchilar Olot tumanida juda ko'p. Ularga tajribali ustozlar saboq berib kelmoqdalar. Ana shunday muallimlardan biri Tolibjon Hamroyev ko'p yillardan beri 7-umumta'lim maktabida kimyo fanidan saboq berib kelmoqda. «Ustoz-shogird» maktabining ustози, «Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi – 2006» tanlovining viloyat bosqichi 2-o'rin sohibi bo'lgan bu ustoz o'tgan yili viloyat xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan «Faxriy yorliq» bilan taqdirlandi. Tolibjon akaning 30 dan ziyod o'quvchilari oliy o'quv yurtlariga Davlat granti asosida kirish baxtiga muvassar bo'ldilar.

Tumandagi 15-«Bolalar musiqa va san'at» maktabida 8 yo'nalishda

tahsil olayotgan 120 nafar o'quvchilar o'zbek xalq cholg'u asboblari, fortepyano, tasviriy san'at, amaliy san'at, an'anaviy hofizlik, estrada va xoreografiya bo'limlarida o'zbek va jahon musiqa durdonalari sirlarini o'rganmoqdalar.

– O'quvchilarimiz yanvar oyida bo'lib o'tgan «Maktabimiz hofizi» viloyat ko'rik-tanlovida VXTB tomonidan «Faxriy yorliq»lar bilan taqdirlandilar, – deydi maktab rahbari M.Allonov. – Viloyatda bo'lib o'tgan M.Qoriyoqubov nomli ko'rik-tanlovda Zarina Qoriyog'diyeva 2-o'rin, Qudrat Qurbonov 3-o'rin sohibi bo'lib, «Faxriy yorliq» va esdalik sovg'alariga ega bo'ldilar. O'quvchilarimiz yutuqlaridan faxrlanamiz, shu bilan birga, ularga yuksak parvozlarni tilab qolamiz.



Bolajonim, zavqlaringni so'zlab yasha, Burgut kabi olislarni ko'zlab yasha!



«BAXTIYOR BOLALIK» TOPSHIRIQLI AYLANMA SKANVORD

10 Bolalar jurnali
12 Bolalar tashkiloti
13 Oybek qissasi
14 O'zbek xalq dostoni
15 Qizaloq sochi
16 O'quv qo'llanma
17 Ko'klamgi milliy o'yin

17 Ertakchi yozuvchi
16 Kulgi, xanda
15 Ixlosmand, muxlis
14 Hunar o'rganuvchi
13 Xalqlar orzusi
12 Tebra-tish moslamasi
11 Bahorning ilk guli
10 Alpo-mishning oti
9 Sevimli shirinlik
8 Futbol maydoni qismi

16 Qizaloq o'yinchog'i
15 Topgan topaloq
14 «Sariq devni minib» (qahramoni)

17 16 15 14 13 12 11 10 9 8 7 6 5 4 3 2 1

Shavkat QAHHOR olgan surat

Mazkur sonni tayyorlashda yaqindan yordam ko'rsatganliklari uchun O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Axborot xizmati rahbari J.Musayeva, Buxoro viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Rajabzoda Halimga o'z minnatdorчилиgimizni bildiramiz.

Maxsus sonni tayyorlaganlar:

T. HAYITOV,
F. JALILOVA,
FADILOVA,
M.MADRAHIMOVA,
YU. ABDULLAYEV,
G. ORIFJONOVA,
M.UBAYDULLAYEVA,
N. ABDULLAYEVA,
O. ORIPOV,
Z. MUHSIMOVA,
Z. MAMATQULOVA.

Gazetaning navbatdagi soni 13-iyunda chiqadi

Javoblar shaklda belgilangan xonadan so'zlar ta'rifi atrofiga soat mili yo'nalishida yoziladi. Skanvordni to'g'ri hal etgan bo'lsangiz, shakl markazidagi

raqamlarni javoblar yozilgan raqamli xonalardagi mos harflar bilan almashtirib, topshiriqni hal eting. Bunda ulardan Siz azizlarga atalgan niyatimizni bilib olasiz.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatiga qarashli bo'lgan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV,
Olovuddin ORIPOV
Navbatchilar:
Ma'mura MADRAHIMOVA,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzillimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi. Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 67069
Buyurtma N: J 1888